

## Ayrim Juz'iy Tafovutlarning Ma'no Va Badiiyatga Ta'siri

*Azimjon Hamidov<sup>1</sup>*

**Abstrakt:** Hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodini tadqiq etish, asarlari mazmunini yoritish hamisha mashaqqatli va dolzarb vazifa sifatida bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yoqatmay kelmoqda. Shubhasiz, bunday ulkan vazifani matnshunoslik va manbashunoslikka oid tadqiqotlarsiz bajarib bo'lmaydi. Hazrat Alisher Navoiy – asarlarining qo'lyozmalari bugungi kunga qadar deyarli to'liq yetib kelgan kam sonli ijodkorlardan hisoblanadi. Lekin hazrat Alisher Navoiy asarlari matni hanuz mukammal bir holga keltirilgan emas. Xususan, bugungi kunda Alisher Navoiy lirik merosining matnshunoslik tadqiqini amalga oshirish dolzarbligini saqlab turibdi. Fikrimizni isboti sifatida ulug' zahmatkash olimlar A.Quyumov, H.Sulaymonov, I.Sulton, A.Qayumov, A.Hayitmetov, S.G'aniyeva kabi bir qator olimlarning sa'y harakatlari bilan “Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami” 20 tomlik nashrga chiqdi.

**Kalit so'zlar:** bayt, g'azal, devon, tafovvut, na't, hamd.

**Asosiy qism.** Ma'lumki ulug' shoirning asarlari o'z davridan hozirgi kunga qadar eng ko'p marotaba nashr qilingan asarlar jumlasiga kiradi. Ulug' shoirning o'zi hayotlik davrida ilk tartib bergan devoni “Badoyi ul bidoya”ning bugungi kunda 6 nusxasining mavjudligi ham fikrimizni dallilaydi. Izlanuvchan matnshunos olim Muhammadjon Imomnazarovning ta'kidlashicha ushbu nodir qo'lyozmalar ham o'zaro tavovutlar hosil qilgani, bu esa hazrat Alisher Navoiy “Badoyi ul bidoya” devonini ham bir necha bor o'zi tomonidan qayta-qayta tahrir qilganini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

G'azallar matnidagi bir qator so'z bilan bog'liq tafovutlarning ulug' shoirning o'zi va taniqli adabiyotshunoslar e'tirof etganidek, muallif tahriri asosida yuzaga kelgan bo'lishi ehtimoli ko'proq. Quyidagi tahlillar shunday xulosalarga kelishimizga asos bo'ladi. Chunonchi, “Badoye' ul bidoya” tarkibida kelgan hamd g'azallardan “*Zihi javlongahing aflok uza maydoni ...*” misrasi bilan boshlanuvchi g'azalda *malak* so'zi “G'aroyib us sig'ar” *falak* so'zlari bilan bog'liq tafovut ham fikrimizni dalillaydi.

Ayrim o'rinlarda arab yozuvida bir harf bilan farqlanuvchi, shaklan bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlarning bir g'azalning turli devonlardan o'rin olgan matni bilan tofovut hosil qilishi muallif tahriri yoki boshqa omillar asosida yuzaga kelgani xususida muayyan qo'nimga kelish imkonini kamaytiradi. Chunonchi, “malak” ملك va “falak” فلك so'zlari bilan bog'liq matniy tafovutlar shular jumlasidandir. Bu ikkala so'z kotiblar tomonidan yozilgan matnda ba'zan farqlanishi murakkablashib ham qoladi. “Badoye' ul-bidoya”dagi to'qqiz baytli na't g'azalning to'rtinchi baytida “malak” timsoli keltirilgan bo'lib, u quyidagicha:

*Malak qolib buroqingdan, emas vasfi falaksur'at,*

*Qamar yorub jamolingdan, emas na'ting qamarsiymo .*

Baytda “Malak sening Buroqingdan ortda qolgani bois uning vasfi falaksur'at, yani tez yuruvchi, chaqqon emas, oy jamolingdan yorishgani bois sening na'ting – maqtovingda “oy yuzli” vasfini qo'llab bo'lmaydi” degan mazmun badiiy ifidalangan. G'azalning “G'aroyib us-sigar”dan o'rin olgan matnida ushbu baytdagi “malak” so'zi “falak” tarzida keltirilgan .

Baytda payg'ambarimiz Muhammad (a.s.v.)ning Jabroil (a.s.) keltirgan Buroq otiga minib Alloh taoloning huzuriga borishlari – Me'roj tuni badiiy tasvir etilgan. Manbalarda ma'lumot berilishicha,

<sup>1</sup> BuxDU o'qituvchisi

<sup>2</sup> Oltin bitig. M.Imomnazarov Olti devon muqoyasasi.3-22 b.



payg`ambarimizda me`rojga ko`tarilish va qaytish holi juda tez bir fursatda ro`y bergan. Shu bois Navoiy ushbu na`t g`azalda “vasfi falaksur`at”ni qo`llab chaqqoonlik, tezlikka alohida e`tibor qaratadi. Masalaning mohiyatiga samoda tez harakatlanish va keyingi baytlardagi ma`no muayyan darajada aniqlik kiritishi mumkin. Ta`kidlash lozimki, badiiy voqeylik samo qatlarida ro`y berayotgani bois Navoiy qarashlariga ko`ra sayyoralar doimiy harakatda bo`lsa-da, ularning “falaksur`at”, ya`ni chaqqonligini “falak” so`zi vositasida Buroq bilan qiyoslashga asos bo`lolmaydi. Buroq ham malak, ya`ni farishta bo`lgani holda uning boshqa malaklardan farqi aynan “falaksur`at”likda namoyon bo`lishini taxmiz qilish mumkin. Negaki, ushbu g`azal matnida payg`ambarimizning zohiriy olamdagi tungi sayrlari badiiy tasvir etilgan.

Shuningdek “Badoyi ul bidoya” devoni “*Fig`onki yor vafo ahliga sitam qiladur*” misrasi bilan boshlanuvchi to`qqiz baytli g`azalning to`rtinchi baytidagi *xahli* so`zi “G`aroyib us sig`ar” devonida *ahli* so`zi bilan tafovut hosil qilganini kuzatish mumkin.

*Ne hukm qilsa vafo ahli jurmida g`am emas,*

*Bu zulm erurki, jafu ahlini hakam qiladur.*

Ushbu g`azal ham hazrat Alisher Navoiyning oshiqona mavzudagi g`azallari sirasiga kiradi. Unda ham ma`shuqasi ishqida hijron azobiga giriftor bo`lgan oshiqning ruhiy iztiroblari haqida so`z yuritiladi. *Vafo ahli gunohlari uchun nima hukm qilingan bo`lsa ham bundan g`am chekmaslik kerak, bu zulm jafokorlarni hakam bo`ladi.* Ushbu bayt “G`aroyib us sig`ar” devonida *xayli* so`zi bilan qo`llangan. Anglashiladigan ma`nodan ko`rinadiki g`azal matni mazmunga ta`sir qilmaganini ko`rish mumkin.

“Badoye` ul-bidoya”, keyinchalik esa “G`aroyib us-sig`ar”dan o`rin olgan “*Ey, hamd o`lub mahol fasohat bila sanga*” misrasi bilan boshlanuvchi g`azal ustida ham amalga oshirilgan ko`rinadi. To`qqiz baytli bu g`azalning matni “Badoye` ul-bidoya”dan quyidagi ko`rinishda o`rin olgan:

*Ey, hamd o`lub mahol fasohat bila sanga,*

*Andoqki, qurbi taqviyu toat bila sanga.*

G`azalning matlasida ulug` shoir Olohgga murojaat qilib, taqvo va toat ibodati bilan Olohgga yaqinlik hosil qilib, unga hamd (maqtov) aytishga o`zlik qilishini bayon etadi. Shoir bubilari barcha toatu ibodati Olohg uchunligini ma`lum qilib, chiroyli so`zlar aytish bilan Olohni maqtashdan ham o`zining o`zligiga diqqat qaratib noliydi. Shu o`rinda ijodkor inson faqat boshi sajdaga etganidagina, ya`ni namoz o`qib ibodatni ado etayotgan kishigina me`rojga chiqqandek bo`lishi, Rabbisiga yaqin turib, u bilan suhbat qura olishiga ishora qilganini ko`ramiz. Keyingi baytda ijodkor Olohg taologafikru taxayyul (xayolga keltirish), aqlu farosatga tayanib xayol surish bilan etish ajablanarli hol ekanligini mubolag`aviy tasvirlaydi:

*Topmoq ajib fikru tahayyul bila seni,*

*Etmak mahol aqlu farosat bilan sanga*[2, 31].

G`azalning ushbu ikkinchi baytidagi خيال "Etmak xayol ..." محال birikmasi "G`aroyib us-sig`ar"da "yetmak mahol" bilan almashtiradi. Bu esa, she`rxonga baytni tushunish imkoniyatini hosil qiladi. Ya`ni Olohg taologa fikru taxayyul va aqlu farosat bilan etish qiyin ekanligi baytda o`z ifodasini topadi. Ehtimol, bunda kotibning xatosi tuzatilgandir. G`azalni o`qish davomida ijodkor ilohiy kitob “Baqara” surasidagi “*Albatta, biz Olohning (bandalarimiz) va albatta, biz u zotga qaytuvchimiz*”oyati karimasiga ishora qilganini ham ko`rish mumkin.

“Badoyi ul bidoya” devoni tarkibidagi “*Havo xush erdiyu ilkimda bir qadah mayi nob..*” misrasi bilan boshlanuvchi g`azal matni “Xazoyin ul maoniy” kuliyoti tarkibidagi “G`aroyib us sig`ar” devonida ايلكيمده *ilkimda* so`zi o`rnida *ollimda* الليمده so`zi qo`llanganligini ko`rish mumkin.

*Havo xush erdiyu ilkimda bir qadah mayi nob.*

*Ichar edim vale g`amdin qadah-qadah xunob.*



Bayt mazmuniga diqqat qaratadigan bo`lsak, lirik qahramon tilidan – *havo yaxshi edi-yu qo`limda bir qadah may, ammo men qadah-qadah g`am qonini ichar edim*. “G`aroyib us sig`ar” devonida ushbu ma`noga o`zgarish kirganligini kuzatamiz. Unda “*havo yaxshi edi-yu oldimda bir qadah xushtam may bor edi, men qadah-qadah edim-u lekin u g`am qoni edi*” fikri mujassamlashgan. Ayonlashadiki, matla` qismidagi so`z o`zgarishi “G`aroyib us sig`ar” devonida o`zgargan bo`lsa ham, ammo mazmunning o`zgarishiga unchalik ta`sir qilmaganligi e`tiborni tortadi. Ushbu tafovut o`zgarishi qay tariqa vujudga kelganligini aniqlash bir muncha qiyichilik tug`diradi. Bu so`z bilan bog`liq tafovutni yuzaga kelishiga ulug` shoirning o`zlari tomonidan ham tahrir qilingan bo`lishi ham mumkin, kotiblar kitobat qilayotganda tahrirga tortgan bo`lish ehtimoli ham mavjud. Ushbu baytni aynan kim tahrirga tortganligini aniqlashning iloji yo`q.

Ayrim o`rinlarda arab yozuvida bir harf bilan farqlanuvchi, shaklan bir-biriga yaqin bo`lgan so`zlarning bir g`azalning turli devonlardan o`rin olgan matni bilan tofovut hosil qilishi muallif tahriri yoki boshqa omillar asosida yuzaga kelgani xususida muayyan qo`nimga kelish imkonini kamaytiradi. Shunday tafovut “Badoyi ul bidoya” devoni tarkibidagi “*Ul malohat kunji hajrida buzug` maskan manga..*” misrasi bilan boshlanuvchi g`azal matnida ham kuzatiladi.

*Ul malohat kunji hajrida buzug` maskan manga,*

*Uyladurkim jondin ayru yuz yorlig` tan manga .*

Bayt mazmunidan anglashiladiki, *u oy yuzlini hajrida mening joyim buzug` maskanning burchagidadir. O`ylaganki bu jondan ayrilgan yuz yaralik va jarohatlik tan manda bor* degan mazmun anglashiladi. Ushbu bayt “G`aroyib us sig`ar” devonida “*Ul malohat ganji hajrida buzug` maskan manga*” misrasi كنجيدە tarzida ifodalanadi.

Fikrimizcha “Badoyi ul bidoya” devoni tarkibida kelgan g`azal matni asliyatga yaqin. Chunki, “G`aroyib us sig`ar” devoni tarkibidagi *buzug` maskan ganji* birikmasida كنجيدە ma`no anglashilmaydi.

“*Kimki bir mushki nob ul sunbuli serob aro*” misrasi bilan boshlanuvchi “Badoyi ul bidoya” tarkibidagi g`azal matni tarkibidagi ko`rsatish olmoshlari o`rni “G`aroyib us sig`ar” devonidagi g`azal matni tarkibida o`zgargani kuzatiladi.

*Charxi doir bahridin el tutmasun sohil umid,*

*Kim qutulmas har kishikim, tushti ul girdob aro.*

*Ul so`zi bu so`zi* bilan almashganligi bayt mazmuniga deyarli ta`sir ko`rsatmaganligi kuzatiladi. Ayonlashadiki, ko`rsatish olmoshlarini boshqa bir turdosh vakili bilan o`zgartirilsa ham matn ma`no mazmuniga unchalik ta`sir qilmaganligini ko`ramiz.

Shu o`rinda aytsih joizki devonlar o`rtasidagi ayrim juzviy tafovutlar sezilarli darajada ekanligi e`tiborni o`ziga qaratadi. Xususan, “Badoyi ul bidoya” №3<sup>3</sup> mus`hafi, husnungdurur, “G`aroyib us sig`ar” №3 –sahfayi, sun`ungdurur;

“Badoyi ul bidoya” №4 xayol, fashohat, “G`aroyib us sig`ar” №3 –mahol, balog`at;

“Badoyi ul bidoya” №6 bo`lur, “G`aroyib us sig`ar” №6 erur;

“Badoyi ul bidoya” №7 malak, “G`aroyib us sig`ar” №7 falak;

“Badoyi ul bidoya” №14 mili, gunbazi; “G`aroyib us sig`ar” №18 mayli, gunbadi;

“Badoyi ul bidoya” №16 bu, “G`aroyib us sig`ar” №19 ul;

“Badoyi ul bidoya” №18 aylamas, “G`aroyib us sig`ar” №20 aylamag;

“Badoyi ul bidoya” №21 uzra, “G`aroyib us sig`ar” №21 ichra;

“Badoyi ul bidoya” №23 qilmamish, “G`aroyib us sig`ar” №9 qilmag`on;

“Badoyi ul bidoya” №24 kirdi, “G`aroyib us sig`ar” №10 kirmish;

<sup>3</sup> № - g`azalning devonlardagi tartib raqami



“Badoyi ul bidoya” №30 kunji, “G`aroyib us sig`ar” №13 ganji;

“Badoyi ul bidoya” №31 ezib, “G`aroyib us sig`ar” №11 ezininb;

“Badoyi ul bidoya” №61 ilkimda, “G`aroyib us sig`ar” №44 ollimda;

“Badoyi ul bidoya” №64 moyilmenu, “G`aroyib us sig`ar” №53 roziymenu;

“Badoyi ul bidoya” №70 aylgandek, “G`aroyib us sig`ar” №58 aylagandek;

kabi g`azallar matnida ayrim juzviy tafovutlar ko`zga tashlanadi. Shuningdek devonlarni o`zaro solishtirish chog`ida shu ayonlashdiki, ayrim harfiy tafovutlar devonning ko`plab o`rinlarida kuzatiladi. Bu tafovutlarni ikki guruhga ajratish mumkin.

Bularning birinchisi unli tovushlarning o`zgarishi aksariyati *a* tovushining *o* ga o`zgarishi *qora* va *qaro* singari so`zlarda, *e* tovushining *i* ga o`zgarishi *zehi* – *zihi* singari, *i* ni *u* ga o`zgarishi *dardi* – *dardu* kabi so`zlarda tovush o`zgarishlari kuzatiladi. Bu hodisa g`azal matnini o`qish, arab yozuvidan joriy yozuvga o`tish chog`ida yuzaga kelgan ham bo`lishi mumkin. Ushbu tafovutlar g`azal ma`nosiga ta`sir qilmaganligi kuzatiladi.

Ikkinchi tur undosh harflarning o`zaro almashinuvi *k* va *g* almashinuvi *ichkan* – *ichgan*; *g`* va *q* almashinuvi *quyoshg`a* – *quyoshqa*, *ayog* – *ayog`*; *t* va *d* almashinuvi *boshtin* – *boshdin*; *z* va *d* almashinuvi *gunbaz* – *gunbad*; *j* va *ch* almashinuvi *ganj* – *ganch*; *k* va *q* almashinuvi *kullob* – *qullob* kabi bir qator tovushlar o`rtasida matniy tafovutlar kuzatiladi. Kuzatishmizdan ayonlashadiki bu harfiy tafovutlar kotiblar tomonidan kitob tartib berish chog`ida yuzaga kelgan bo`lish ehtimoli ko`proq.

Xulosa qilib aytganda shuni aytish mumkinki, “Badoyi ul bidoya” tarkibidagi g`azallar matnining “Xazoyin ul maoniy” kuliyoti tarkibiga o`tishida ayrim juzviy tafovutlar ham kuzatiladi. Ular matniy tafovuti natijasida matn mazmuni o`rtasida ham farqlar kuzatiladi. Shu o`rinda aytish joizki, ayrim juzviy tafovutlarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Tovush almashinuvi natijasida vujudga keluvchi tafovutlar.
- Bir so`z bilan farqlanuvchi so`zlar orasidagi tafovutlar.
- Ko`rsatish olmoshlarining boshqasiga almashinuvi natijasida vujudga keluchi farqlar.

Bu farqli hodisalar devonlar o`rtasida turli xil farqlarni hosil qilgani ayonlashadi. Ayonlashadiki, ulug` shoirning “Xazayin ul maoniy” va “Badoye` ul bidoya” devonlaridan o`rin olgan ayni bir xil matnga ega bo`lgan g`azallar tarkibidagi ayrim juzviy tafovutlarning uchrashi ularning ayrim o`rinlarda ma`no va mazmuniga ta`sir ko`rsatganligini ko`rish mumkin. Bu juzviy tafovutlar natijasida devonlar tarkibidagi bir xil matnga ega g`azallar mohiyatining o`zgarishi va ularning boshqa ma`no kasb etishiga sabab bo`lgan.

Hazrat Alisher Navoiyning “Badoye` ul bidoya” va “Xazoyin ul maoniy” kuliyotlaridagi ayrim juzviy tafovutlarning uchrashi kim tomonidan amalga oshirilganligini aniqlash bir qadar mushkildir. Bunga sabab ushbu devonlarning juda ko`plab marotaba nashr etilganligidadir. Zero, hazrat Alisher Navoiy asarlarining ohangrabosi hech bir o`quvchini diqqatini tortmay qolishi mumkin emas. Ulug` shoir bilan bir davrda yashagan va ulug` zotning gozal xulqlari haqida kitob yozgan Hummomiddin Xondamirning ta`kidlashicha Alisher Navoiy asarlarini kitobat qilib ko`chirgan kotiblar ham u kishining asarlaridan ta`sirlanib o`zlari ham ijod olamiga sho`ng`ib ketar ekanlar<sup>4</sup>.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, devonlar o`rtasidagi ayrim juzviy tafovutlarning uchrashi bu faqatgina buyuk shoirning o`zining ishi bo`lib qolmay, balki ulug` shoir bilan bir davrda va u kishidan keyingi davrlarda ijodkor asarlarini kitobat qilib ko`chirgan shoirlarning ishi ham ekanligini kuzatiladi.

<sup>4</sup> Xondamir “Makorim ul axloq” 2015 y. 65-66 b.



Shu o`rinda aytish joizki, “Badoyi ul-bidoya” va “Xazoyin ul maoniy” kuliyoatlari tarkibidagi g`azallar matnidagi ayrim juzviy tafovutlarning uchrashi devonlar o`rtasida farqli jihatlarni yuzaga keltirganligi ayonlashadi.

### Adabiyotlar ro`yxati

1. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste’dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – T. 3. – №. 3.
2. Hamidov A. MUALLIF TAHRIRIDA AYRIM BAYTLARNING TUSHIRILISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – T. 41. – №. 41.
3. Eshonqulov H. ALISHER NAVOIY G ‘AZALIYOTIDA MUALLIF TAHRIRI: SHAKL VA MAZMUN MUKAMMALLASHUVI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 21. – №. 21.
4. Hamidov A. ALISHER NAVOIY GAZALLARI MATNIDA TAFOVUTLAR, IJODKOR TAHRIRI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – T. 19. – №. 19.
5. Eshonqulov H. Badiiy asarni sharhlash mezonlari: mushtaraklik va o`ziga xosliklar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2022. – T. 1. – №. 1.
6. Pirimovich E. H. ALISHER NAVOI'S ARTISTIC SKILLS IN THE USE OF WORDS REPEAT AND RHYTHM //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – T. 48. – №. 12.
7. Eshonqulov H. Ma'shuqa va oshiq holiga xos istioralashgan epitetlarning qofiyalanishi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.
8. Vohidov R., Eshonqulov H. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasini //Buxoro-2001. – 2001.
9. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz Adabiyoti tarixi //O`quv qo`llanma. T.: O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashrivoti. – 2006. – T. 528.
10. Eshonqulov H. Navoiy gulshani: SO THAT MY EYES DON'T FALL INTO ANOTHER THAN THE BLESSED FACE //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 1. – №. 1
11. Eshonqulov H., Hamidov A. International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers: CONSIDERATIONS RELATED TO SOME WORDS FROM THE POINT OF VIEW OF MEANING, WEIGHT AND ARTISTRY – 2024 – Finland. Volume-12| Issue-5|

